

MUSLIHIDDINOVA SEVINCH ERKIN QIZI
Guliston Davlat Pedagogika Instituti 2-kurs talabasi
muslihiddinovasevinch@gmail.com

O‘ZBEK ADABIYOTIDA YUMOR

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida yumorning paydo bo‘lishi va adabiyotchilarning ijod jilg‘alaridan namunalar orqali yumorning asl mohiyati haqida gap boradi. Bir necha ijodkorlarning humor ortiga yashirgan o‘zbek millatining asliy jihatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar. Yumor,hajv,asliy jihat,o‘zbek adabiyoti.

Barcha inson kulishni yoqtiradi. Bu uchun hayotda sabablar juda ko‘p. Masalan: latifalar o‘qish,kulgili filmlar ko‘rish.Yoki do‘stlar bilan bo‘lgan qiziqarli suhbatlar.Kulgi immunitetni oshirib,inson umrini uzaytiradi. Ammo u asil haqiqatlarni ham fosh etish quroli ekanligini unutmaslik kerak.Kulgini adabiyot aynan shu uchun ham o‘ziga quroq qilib olgan.

Ko‘plab davlatlarning adabiyotida, masalan: Britaniyaning komedialari kabi o‘zbek yumorlari mavjud.

Yumor haqida gapirishdan avval hajviyat tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak.Boisi yumor hajviyotning uch asosiy katta turkumlaridan biri hisoblanadi.

Hajviy asarlar tanqidiy ruhda bo‘ladi. O‘tmishda Sharq xalqlari,shu jumladan,o‘zbek adabiyotida,asosan,she’riyat va folkorda mustaqil janr sifatida rivojlangan.Ularda jamiyat hayoti va ayrim shaxslarning yomon tomoni tasvirlanadi.Hajviyotda fikr qaratilgan mavzuga kinoyaviy masxaralovchi yoki fosh etuvchi kulgi asarning asosiy g‘oyasi bo‘ladi.Bunday asarlar ijodkorona yondashuv va mubolag‘adan foydalanishi xarakterlidir.

Hajviy asarda bosh omil ayovsiz tanqid bilan fosh qilish bo‘lsa,yumoristik asarlarda esa masxaralovchi achchiq handadir.Va bu yumoristik asarda bosh ro‘lda bo‘ladi.Hajviyada esa achchiq handa qo‘llab –quvvatlovchi vosita vazifasinigina o‘taydi.Demak yumorning hajviyadan farqi,avvalo,inkor qilishni qay yo‘l bilan amalga oshirishi,maqsad uchun tanlangan yo‘l va vositalardadir.

Yumor lotinchadan olingan bo‘lib,kulgu bilan xayrixohlikni o‘zida mujassam etgan komiklik turi hisoblanadi.Yumorda hayotdagi va shaxslardagi kamchiliklar tanqidga uchraydi. Ammo, tanqid ostidagi shaxs xulqi yoki hayotiy jihatlarni butkul yo‘q qilishdan yiroq bo‘ladi.Yumorda jiddiy niyatlar tabassum ortidan obyektga qaratiladi.

Rus yozuvchisi Nikolay Gogol aytganidek:”Yumor - dunyoni kulgi orqali ko‘rish zaminidagi ko‘rinmas ko‘z yoshlarni payqab beradi.”

Yumor o‘zbek adabiyotiga kulgi bilan singib kirib kelgandir.

“Kulgilikning boshlanish tarixi juda eskidir.Kulgilik insonlar bilan birga tug‘ilgan,uning boshqa xususiyatlari,ya’ni kamolot va ruhiy holatlari ila yondoshdir.Shuningdek,biz o‘zbeklarning kulguligimiz ham o‘z ta’rifini eskidan boshlaydi”¹

U o‘z akslarini boy xalq ijodi, ming yillik mumtoz adabiyot namunalarida ko‘rsatib kelgan

XX asr boshlarida yangi yo‘nalishdagi o‘zbek adabiyoti vujudga kelayotgan bir davrda ham bu yo‘nalishda turli tadqiqotlar olib borilgan.

Yumorni biz o‘zbek yozuvchilari ,shoirlari Erkin Vohidov,Said Ahmad,Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom,Muqimiy va boshqalarning ijodlarida uchratishimiz mumkin. Ular xalqqa ko‘zgu tutgan ijodkorlardir.

Boisi yozuvchi xalqdan oladi va xalqqa beradi.Faqatgina humor orqali ular hayot haqiqatlariga badiiy libos kiydirib ,taqdim qilgan xalos.Masalan:

Bizning motam

Ahli ayol bog‘lagan bel,

Ichkarida to‘kar yosh.

Tashqarida tumonat el,

Yeng shimarib urar osh.²

Erkin Vohidovning ushbu to‘rtligida o‘zbeklarning qayg‘uli kunlaridan biri bo‘lgan aza tasviri bor. Buni biz to‘rtlikning birinchi baytidan bilib olishimiz mumkin.Chunki o‘zbek ayollari yaqin insoni o‘tgan kun aynan shu ko‘rinishda yig‘lab aza tutishadi.Sherning ikkinchi bayti esa to‘yu azada birdek dasturxonga osh tortilishi bilan birga, azada tarqatilgan oshning savobi o‘tgan insonga tegishi, o‘zbek millatining azaldan rivojlanib kelgan odatlarini tasvirlaydi. Ammo mohir yozuvchi qalamida tasvirlangan ushbu to‘rtlik inson yuziga nim tabassum yogurtiradi,garchi u qayg‘uni namoyon etayotgan bo‘lsada.

Erkin Vohidov shu bilan birga yana bir ajoyib qadriyat bo‘lgan o‘zbek xalqining mehmondo‘stligini yaxshi tomoni bilan birga yomon tomoni ham borligini (huddi tanganing ikkinchi tomoni kabi)humor orqali oshkor etgan va biroz tanqid qilgandir.

Yashavor

Meva berma bolangga,

Asra mehmon xolangga.

Mahkam berkit,yashavor,

¹ A .Qodiriy.Kichik asarlar.Toshkent.1969.181-bet

² Erkin Vohidov.Tanlangan asarlar.”Sharq”nashriyoti.Toshkent 2019.655-bet

Qoraytirib tashavor.³

Darhaqiqat,uyiga mehmon kelgan o‘zbek, mehmon oldiga o‘zi yemagan narsalarni ham topib kelib qo‘yadi.Ammo o‘ta izzat va hurmat bilan bollariga yedirmay saqlab qo‘ygan va ohrida tashlashga majbur bo‘lish orqali isrofgarchilikka yo‘l qo‘yishini hatto payqamaydi ham.

Mezbon haqida gap ketganda mehmon ham nazardan chetda qolmaydi albatta.

Vohidov ham bu borada tabassum bilan shunday deydi:

Inglizcha ketish

Xayrlashmay ketar ingliz,

Mezbonini notich etmaydi.

Donishqishloq ahli,bilingiz

Xayrlashadi-yu ketmaydi.⁴

Bu to‘rtlikni o‘qigan insonning uyiga kelgan mehmonlarini kuzatish jarayoniga yana qaytishi tabiiydir.Tabassum qilishi ham.Boisi o‘zbekning uyiga kelgan mehmon azaldan:”Ana ketaman,mana ketaman”,-deydi-yu,ammo,birinchi taom ketidan ikkinchisini kutadi.

Shariatdagi ro‘za, xatm va boshqa farz qilingan illatlarga ham Abdulla Qodiriydek mohir yozuvchi yumor orqali tanqid ko‘zi bilan qaraganlar.Bunda aynan shu farzlarga emas balki ularni niqob qilib olganlarni kulgili misralar ila xarakterlab,insonlarga ularning ketidan ko‘r- ko‘rona ergashmaslikni targ‘ib qiladilar.Misol uchun:”Kalvak maxzumning xotira daftari”,”Mehrobdan chayon”,”Tinch ish”kabi asarlardagi obrazlar orqali.Bular :Abduraxmon,Solih mahdum,Xatib domla,Kalvak singari yumoristik obrazlar to‘plamidir.

Ko‘ylak- ishtonining aksar yetti-sakkiz joyidan yamog‘i bo‘ladir.Yetti qishdan beri guppi-chopon yangilagani ma’lum emas,faqat qish kelib ketgan savin alak guppining yengi o‘zgaribkina turadir va astari yil sayin yangidan yangi yamoqlar bilan boyiydir,shu guppi butun umrida birgina martaba va shunda ham maxdumdan beruxsat ammo,Nigor oyimning zo‘ri bilan tog‘oraga tushib cho‘mildi.⁵

Bu yumoristik obraz bo‘lgan Solih maxdumning guppi cho‘poni edi.Kamiga maktabdor maxdumning...

³ Erkin Vohidov.Tanlangan asarlar.”Sharq”nashriyoti.Toshkent 2019.646-bet

⁴ Erkin Vohidov.Tanlangan asarlar.”Sharq”nashriyoti.Toshkent 2019.646-bet

⁵ Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon. ”Sharq”nashriyoti.Toshkent 2013.15-bet

Maxdum-(arabcha xizmat qiluvchi)pir va ustozlarga beriladigan laqab.

Xulosa qilib aytganda, taraqqiy etayotgan davrda xato qilish tabiiydir. Ammo uni takrorlash bu muvaffaqiyatsizlik kaliti hisoblanadi. Xatoga qaytib yo‘l qo‘ymaslik uchun bizning hayotda adabiyot inson shurini yorituvchi kuch. Uning misli zanjir tizmasidagi birgina qismi bo‘lgan humor esa sehrli ko‘zgudir. Boisi u hayot haqiqatlarini ko‘rsatadi. U orqali nafaqat insonlar balki , millat yuksaladi. Demak, izchillab borayotgan davrda o‘zbek adabiyotidagi humor o‘tmishdan xulosa,kelajakka pillapoya bo‘lib bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyotshunoslik asoslari fanidan o‘quv uslubiy majmua. Guliston-2022.
2. Erkin Xudoyberdiyev, Adabiyotshunoslikka kirish, ”Sharq” nashriyoti, Toshkent-2008
3. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. ”Sharq”nashriyoti. Toshkent 2019.
4. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. ”Sharq”nashriyoti. Toshkent 2013.
5. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.:O‘qituvchi, 2005.
6. O‘zME. 1-jild. T.2000.
7. fanvatalim.uz